

**SO'FIZODA JONKUYAR MUALLIM**

**Mardonova Bahor Ravshan qizi**  
 Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
 O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
 1-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada taniqli jadid, ma'rifatparvar shoir va pedagog Muhammadsharif So'fizodaning Turkiston ta'lim tizimini isloh qilish yo'lidagi fidokorona xizmatlari yoritilgan. So'fizodaning yangi usul maktablarini tashkil etishi, xalqni savodli qilish va milliy uyg'onish davridagi "jonkuyar muallim" sifatidagi ijtimoiy-pedagogik qarashlarini tahlil qilinadi. Maqolada shoirning nafaqat ijodi, balki murakkab siyosiy sharoitda ham ma'rifat mash'alasini ko'tarib chiqqan amaliy faoliyati ochib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещаются самоотверженные заслуги известного джадида, поэта-просветителя и педагога Мухаммадшарифа Софизаде в реформировании системы образования Туркестана. Анализируются социально-педагогические взгляды Софизаде как «самоотверженного учителя» в период национального возрождения, его деятельность по организации новометодных школ и ликвидации безграмотности среди населения. В статье раскрывается не только творчество поэта, но и его практическая деятельность по распространению просвещения в сложных политических условиях того времени.

**Abstract:** This article highlights the selfless services of the prominent Jadid, enlightener poet, and educator Muhammadsharif Sofizoda in reforming the education system of Turkestan. It analyzes Sofizoda's socio-pedagogical views as a "dedicated teacher" during the period of national awakening, focusing on his efforts to establish "new method" (usul-i jadid) schools and promote public literacy. The article explores not only the poet's literary heritage but also his practical activities as a torchbearer of enlightenment amidst challenging political circumstances.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, yangi usul maktablari, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti.

**Kirish.** "Tarix – millatning xotirasi bo'lsa, ma'rifatparvar ajdodlarimiz o'sha xotiraning eng yorqin sahifasidir".

XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti nafaqat ziddiyatlar, balki milliy uyg'onish pallasining ibtidosi sifatida ham tariximizda muhim o'rin tutadi. Bu davrda xalqni jaholat botqog'idan olib chiqishning yagona yo'li ta'lim deb qaraldi va bu murakkab yo'lda ko'plab jadidlarimiz xalqni savodli qilish, ularni jaholat

botqog'idan olib chiqish uchun juda ko'p ter to'kishdi. Ulardan biri xalqning ko'zini ochishni hayotining mazmuni deb bilgan siymo bu – Muhammadsharif So'fizodadir. Ushbu murakkab jarayonda Muhammadsharif So'fizodsa o'zining olovli she'rlari va amaliy pedagogik faoliyati bilan qolganlardan ajralib turdi. Muhammadsharif So'fizoda dars berish bilan bir qatorda, millat kelajagi uchun o'z halovatidan kechgan fidoyi va o'z davrining chinakam “Jonkuyar muallimi” edi.

Muhammadsharif So'fizodaning tug'ilgan yili haqida turli ma'lumotlar mavjud bo'lib, atoqli olim hamda filologiya fanlari doktori va professor Sobir Mirzayev o'zining “O'zbek adiblari” nomli kitobida: “Muhammadsharif So'fizoda 1869-yilning 29-yanvarida Namangan viloyatining Chust tumanida hunarmand-kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Egamberdi pichoqchilik va charxchilik bilan shug'ullangan. So'fizoda onasi Zaynab xolaning xohishi bilan qo'shnisi Manzura otindan xat-savod o'rganib, eski maktabga boradi. Zukka va xushovoz Manzura otin aytgan ertak, doston, va qo'shiqlar Muhammadsharif So'fizodada adabiyotga bo'lgan qiziqish uyg'otadi. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi mashhur ijodkorlar ijodini chuqur o'zlashtirib, she'rlar mashq qila boshladi”<sup>1</sup>. O'sha davrda Turkistonda chiqadigan “Turkiston viloyatining gazetisi” va Qozon, Orenburg, Boqcharoyda chiqadigan oynoma va ro'znomalar bilan qiziqadi.

Muhammadsharif So'fizoda haqida turli maqola va risolalar yozilgan bo'lib, ularda bir-biridan farqli bo'lgan ma'lumotlar mavjud, “O'zbekiston adabiyoti va san'at haftaligining 1993-yil 23-iyul sonidagi chop etilgan “So'fizoda qachon tug'ilgan?” nomli Ahmad Muhammad Ubaydning maqolasi bilan adabiyotshunoslar va jamoatchilikni chuqur o'ylantirgan savol bilan murojaat qildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Ahmad Muhammad Ubaydning Namangan viloyati arxivida 173 raqami ostida saqlanib kelayotgan, Muhammadsharif So'fizoda Chust shahar ishtirokiyumi firqasi a'zo bo'lish uchun tayyorlagan hujjatlarini topganligi ma'lum<sup>2</sup>. Topilgan hujjatlar orasida So'fizodaning o'z qo'li bilan yozgan tarjimai holi ham topilgan va unda quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan: “Men 1880-yilda Chust shahridagi ko'nchigarlik jamoasida tug'ilganman. Otam yersiz kambag'al sinfidan edi. Ahvolim g'oyatda tuban bo'lib, otamdan 15 yoshimda aytrildim. Mening volidam va bir ukam qoldi. U vaqtlar men daladan o'tin tashib kelib, sotib va mardikorlik qilib ishlab, kun kechirib kelar edim. 1912-yilda qo'shchilik qilganman. Eski hukumatga otam ham, o'zim ham xizmat qilganmiz. Chunki kambag'al bo'lganimiz uchun u paytlar bizga ish yo'q edi.

O'qishim darajasiga kelsak, eski maktabni bitirganimdan keyin uch oylik kursda yangi ruhdagi o'qishda o'qiganman. 1921-yilda Chust shahrida o'z tushuncham va o'z xohishim bilan firqaga kirganman va hu yillarda Chust partiya tashkilotchisi bo'lib ishladim, bir firqadan ikkinchi firqaga o'tganim yo'q va o'tish niyatida ham emasman.

<sup>1</sup> Anvar Obidjon: Hayoti va ijodi. Ziyoz.uz adabiy portali.

<sup>2</sup> Ahmad Muhammad Ubayd. So'fizoda qachon tug'ilgan?// Namangan haqiqati. – 1993,23-iyul, 3-b.

Chust firqa tashkilotida rahbar bo'lib, 1921-yilda vaqf bo'limida ham ishladim. Hech qanday hukm bilan yoki boshqa ishlar to'g'risidan qamalgan emasman. Ammo istibdod davrida yangi usul maktabida o'qitganim uchun qamalgan edim.

Fevral inqilobidan keyin 1917-yildan xalqni oqartuv to'g'risida Gazeta va boshqa joylarda inqilobiy ruhda har xil she'rlar yozib turdim, shuningdek, firqa, vaqf idoralarda ishladim. Agarda hozirda sho'rolar hukumati tarafidan har bir ezgu xizmat bo'lsa bo'lsin, qilishga tayyorman",- deb yozib qoldirgan.

1893-1898-yillarda Qo'qonda yashab, madrasada taxsil oldi. Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim Namangoniy bilan yaqin munosabatda bo'ldi. So'fizoda Muqimiy va Furqat ta'sirida "Vaxshiy" taxallusi bilan hajviy asarlar yaratishni boshladi. U "Dakanang", "Bedanang", "Ayting bu so'zimni", "O'pay", "G'ubor dardu olam" kabi hajviy. Undan tashqari So'fizoda Qo'qonda yahagan vaqtida arab va fors tillarini mukammal o'rgandi hamda Rossiya va butun dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'la boshladi. Qo'qon adabiy muhiti va klassik adabiyotni o'rganishi So'fizodaning ijodiy ufqlarini kengaytirdi. Biroq, So'fizoda faqat hajnavislik bilan cheklanib qola olmas edi. XX asr boshlaridagi ijtimoi-siyosiy evrilishlar va millatning qoloqligi uning dunyoqarashida tub burulish yasadi. U "Vaxshiy" taxallusi bilan yozgan hajviyalarida jamiyatdagi illatlarni kulgi ostiga olgan bo'lsa, vaqt o'tgandan so'ng bu illatlarni tag-tomiri bilan yo'q qilishning yagona yo'li ma'rifat ekanligini tushunib yetadi. Shu tariqa, So'fizoda amaliy pedagogik faoliyatga bel bog'laydi. U nafaqat o'zbek va jahon adabiyoti, balki Rossiya va butun dunyodagi o'zgarishlardan xabardor ziyoli sifatida Turkistonda yangi usul maktablari tashkil etishga kirishadi. Uning dars berish uslubi an'anaviy maktablardan farq qilib, bolalarga qisqa vaqt ichida savod o'rgatishga yo'naltirilgan edi. So'fizodaning o'z kasbiga bo'lgan ishonchi shunchalar baland ediki, u: "Men bir bo'yoqchiman, menga qorachalpalarni bering, men ularni o'n ikki oyda oqqa bo'yab beraman", - deb ta'kidlagan. Bu shunchaki balandparvor gap emas, balki jadid muallimining jaholat zulmatini ma'rifat nuri bilan yuvib tashlashga bo'lgan qat'iy ahdi edi. Bu yerda "Qorachalpa" iborasi ostida shoir nafaqat ust-boshi qora kishilarni, balki zulmatda qolgan, savodsiz va dunyoqarashi tor kimsalarni nazarda tutgan. So'fizodaning maqsadi esa shu ilm nuri bilan ularni oqqa bo'yash, ya'ni ziyolilarga aylantirish edi. So'fizoda o'zining yana bir xalqqa murojaatida shunday deydi: "Ey millat, ko'zingni och! Seni qorong'ulikda saqlayotgan, har bir yangilikni "kofirlik" deb tamg'alayotgan bu qarachalpalar sening kelajagingni barbod qilmoqda. Ularning orqasidan ko'r-ko'rona ergashma, ilmga, ziyoga intil!"<sup>3</sup>.

Biroq, shoirning bu jasoarti barchaga ham birdek ma'qul bo'lmadi. Uning ijtimoiy tuzum homiylarini sharmanda qiluvchi zaharli hajviyalari, haqiqatni

<sup>3</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: B. qosimov). – Toshkent: Ma'naviyat, 2026, 124-b.

ochiqchasiga aytgan haqiqatlari va yangilikka intilishi o'z boshiga tashvish olib kelib, mahalliy mutaasib kuchlarning keskin qarshiligiga sabab bo'ldi. Uni "kofirlik"da va jamiyat tartibini buzishda ayblashdi. So'fizodaga "beadab", "badasl" degan tavqi la'nat tamg'asini bosdilar. Bir necha bora hayotiga suiqasd qilingandan so'ng 1900-1913-yillarda o'z yurtini tashlab, darbadar hayot kechirishga majbur bo'ldi. Darbadarlik vaqtida So'fizoda O'rta Osiyoning Tiflis, Boku, Arabiston, Hindiston, Turkiya kabi bir qator shaharlarda bo'ldi. Ammo So'fizoda qayerda bo'lmasin, o'z ona diyorida qaytish umidida yashadi. So'fizoda o'z she'rlarini Kavkaz va Orenburg matbuotida, undan tashqari Toshkentda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazetisi", "Sadoyi Turkiston" kabi gazatalarda chiqarib turdi. Ancha vaqtlik darbadarlikdan so'ng 1993-yilning oxirida Chustga qaytib, yangi usul maktabini ochdi. So'fizodaning tabiati dangal, tikso'z, hatto biroz chapani edi. U maktabining tepasiga: "Men ul bo'yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chalpalarni o'n ikki oyda oq qilaman" ,- deb yozib qo'yadi.

Guvohlik beruvchilarning ma'lumotlariga qaraganda, bu maktab o'sha paytlarda shaharda dunyoviy bilim o'rgatuvchi yagona maktab bo'lgan. Bu maktabda ona tili, jug'rofiya, handasa(geometriya) singari fanlar o'qitilgan. So'fizoda faqatgina maktab emas, balki Qamarsada ham yetim bolalar uchun "Dorulaytom" (yetimlar uyi) va kattalar uchun kechki kusrlar ochadi. Ammo bu maktablar o'z faoliyatini ko'p davom ettira olmadi. "Turkiston viloyatining gazetisi" ning 1914-yil 1-yanvardagi soniga ko'ra: "Chust shahrida bir mulla shoir usuli jadid maktab ochgan ekan. Chust aholilarianing axloqi buzuq deb maktabni tarqatib, o'zini Chustdan haydab yuborgan ekanlar". Bu holatdan so'ng So'fizoda "Turkiston viloyatining gazetisi"da:

"Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar, bizlar,  
Berib pora, pristavlarni topgan chustilar, bizlar"<sup>4</sup> –  
deb boshlanuvchi qochiriqlarga boy kinoyali bo'lgan she'rlari bosib chiqildi. Bu she'rida So'fizoda faqatgina maktab yopilishi haqida emas, balki butun Turkiston hududida mutlaqo erkin fikr yuritib bo'lmasligi va bu hududda umuman toqat qilib bo'lmasdigan darajadagi turmush tarzi haqida ma'lumot bergan.

Duo qilsin dedik, qizlarni sotdik oqsoqollarga,  
Valekin qilg'uchi olamni vayron chustilar bizlar.  
Ko'ring insofni, pulsiz kambag'al, qirq yoshida bo'ydoq,  
Dag'i bir chorasiz, har yerda sarson chustilar, bizlar...  
Kalova sotsa, teng yarmin olurmuz beva zanolardan,  
Xudoni erka abdi, har biri xon chustilar, bizlar...  
Yesin to'qlar, eshik oldida tursin termurib ochlar,  
Shu odatni chiqargan, xub purdon chustilar, bizlar.

<sup>4</sup> So'fizoda. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. 14-15-b.

Bu she'r Turkiston hukumatini larzaga soldi va shoirga nisbatan yana ham kuchliroq tazyiqlar boshlandi. So'fizodaga jazo tariqasida uni qamadilar va oyog'idan sudrab sazoyi qildilar. "Vahshiy uchun boqqol mol sotmasin, sartarosh sochini olmasin, choyxona va yig'inlar uni tagjoydan mahrum qilsinlar", - deya ulamolar fatvo ham berdilar. Buning natijasida shoir yana o'z yurtidan bosh olin chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Quvdi meni johillar o'shadog' vatanimdan,  
Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan.

Yuqoridagi bu misralar orqali shoir o'z yo'lidan qaytmasligi, ya'ni haqiqatni xalqqa yetkazishdan iborat bo'lgan kasbidan also voz kechmasligini aytib o'tgan.

Bilamizki, So'fizoda o'z zamondoshlari kabi marifatparvar shoir sifatida tanildi. So'fizoda Jalil Mamadqulizoda, Aliakbar Sobir singari taniqli adiblar bilan yaqindan tanishligi uning dunyoqarashining shakllanishiga zamin yaratdi. 1905-yildan boshlab shoirning ijodi yangi bosqichga ko'tarilib, uning she'rlarida milliy tuyg'ular paydo bo'la boshladi. So'fizoda o'z she'rlarini o'tkir qurol bo'la olishini bilib, o'z qalamidan faqat erkinlik yo'lidagi kurash uchun foydalanadi. Shoir she'rlarining birida:

"Qadrdonim qalam, mardona bulg'il, vaqti xizmatdur,  
Agar mendin keyin qolsang, libosing siymu zardandur."<sup>5</sup>  
-deb yozgan.

So'fizodani xalq orasida ko'pincha badihaguy shoir deb atashganlar. So'fizodaning ko'cha devorlariga, choyxona eshiklariga, darvozalar tepasiga yozib qoldirgan she'rlari hali-hanuzgacha aholi o'rtasida saqlanib kelmoqda. Vaholanki, shoirning 1917-yilgacha bo'lgan she'rlari juda ham oz miqdorda saqlanib qolgan bo'lsa ham ulardan So'fizodaning qanchalik yetuk shoir bo'lganligini bilib olish qiyin emas. So'fizoda qochqinda yurganida ham hech vaqtini bekor sarflamadi. U Hindistonda bir muddat muallimlik qildi, ammo ingliz politsiyachilari tufayli u yerda ham ko'p muddat qolomadi. Hindistondan ketib Afg'onistonga ketadi. So'fizoda Afg'onistonda kallapazga shogird bo'ladi va karvonsaroyda yashab, kun kechirgan. Bu vaqtlarda So'fizoda ajg'on gazetlaridan biri: "Siroj ul-axbor"da ilm-urfon haqidagi 3-4 forsiy she'rini bosib chiqaradi va amir Xabibulloxonning e'tiboriga tushadi. Amir Xabibulloxon So'fizodaga maktab ochishi uchun ruxsat beradi. Amir Xabibullodan keyin Omonulloxon taxtga o'tiradi va u So'fizodani maorif vazirligiga ishga qabul qiladi. 1919-yilda So'fizoda Afg'oniston deklaratsiyasi tarkibida Turkustonga keladi. Bu vaqtga kelib uning dunyoqarashi va ijtimoiy-siyosiy tajribasi yanada boyigan edi. Shoir ona shahri Chustga borib, maorif ishlarini jonlantirishga harakat qildi, hatto o'z idorasi peshtoqiga mehnatkash xalqni ulug'lovchi misralar yozdirib qo'ydi. Biroq, Turkistonning haqiqiy ozodligi u uchun armon bo'lib qoldi. Millat fidoyisi

<sup>5</sup> Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So'fizoda. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. 210-b.

Muhammadsharif So‘fizoda 1937-yilda, 57 yoshida mustabid tuzum qurboni sifatida fojiali halok bo‘ldi. Uning ijodiy merosi tadqiqotchi T. Rasulov kabi olimlar tomonidan o‘rganilib, avlodlar uchun ma‘naviy xazina bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammadsharif So‘fizoda o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining eng yorqin va jasoratli jadidlaridan biri bo‘lib, uning hayot yo‘li millat dardini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ygan buyuk ma‘rifatparvarlik namunasidir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoir o‘z faoliyatini Chustda yangi usul maktablarini ochishdan boshlagan bo‘lsa-da, mutaassib qatlam va chor amaldorlarining qattiq tazyiqiga uchradi, biroq bu to‘siqlar uning irodasini buka olmadi. Aksincha, yuqorida ta‘kidlab o‘tganim “Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar” kabi achchiq hajviy asarlari orqali jamiyatdagi qoloqlik va jaholatga qarshi ochiq isyon ko‘tardi. So‘fizoda o‘zbek adabiyotida ijtimoiy hajv janrini yangi pog‘onaga ko‘tarib, o‘zining mashhur “Qalam” she‘rida ta‘kidlaganidek, ijodni millat ko‘zini ochish va onglarni yoritishning asosiy vositasiga aylantirdi. Uning Kavkaz, Turkiya, Hindiston va ayniqsa Afg‘onistondagi ko‘p yillik muhojirlik hayoti shoirning dunyoqarashi naqadar keng bo‘lganligini, Afg‘oniston maorif tizimidagi samarali faoliyati esa uning pedagogik mahorati xalqaro miqyosda tan olinganini isbotlaydi. 1919-yilda Vataniga qaytgan shoir o‘zining bor tajribasini milliy maorif tizimini isloh qilishga va xalqning savodxonligini oshirishga bag‘ishladi. Bugungi kunda So‘fizoda merosi bizni milliy mustaqillikni qadrlashga, ilm-fan cho‘qqilarini zabt etishga va har qanday sharoitda ham insoniy erkinlik hamda haqiqat yo‘lida sobit turishga o‘rgatadi. Muxtasar qilib aytganda, Muhammadsharif So‘fizoda siymosi o‘zbek xalqi xotirasida nafaqat iste‘dodli shoir, balki zulmatni yorituvchi nur va millat fidoyisi sifatida mangu yashaydi hamda uning merosi kelajak avlodlar uchun vatanparvarlikning yuksak timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Axmad Muhammad Ubayd. So‘fizoda qachon tug‘ilgan? // „O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati“ gazetasi, 1993.
2. Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov). – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 1999.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov). – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999.
4. So‘fizoda. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: T. Rasulov). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1968.